

## **KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI KORXONALAR BOSHQARUVIDA AVTOMATLASHTIRISH USULI YORDAMIDA SAMARALI JORIY QILISH**

*Ilyos Turabov Shuhrat o'g'li*

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*Olmalik filiali Energetika va mashinasozlik fakulteti*

*Mashinasozlik kafedrası asissenti*

***Annotatsiya:** Maqolada korxonada resurslarini rejalashtirish tizimi va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarishni rejalashtirish mexanizmlari hamda apparatli-dasturiy vositalarni birlashtirish orqali korxonada komplekslashgan axborot tizimining zamonaviy instrumentlari, funksional va tuzilmaviy ta'minoti to'g'risida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** axborot tizimi, korxonada boshqaruvi, avtomatlashtirish, tizim samaradorligi, boshqaruv qarorlari, boshqaruv modullari.*

### **ASISIY QISM**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalar boshqaruv tizimini avtomatlashtirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ularning iqtisodiy mavqeini yuksaltirishda Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindiston kabi mamlakatlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash orqali bugunga qadar yuqori natijalarga erishishmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyoti ham jadal sur'atlar bilan innovatsion rivojlanayotgan bir paytda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash, ular faoliyatiga zamonaviy korporativ axborot tizimlarini joriy etish orqali boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shokat Mirziyoev tomonidan imzolangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham «...iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga AKTni joriy etish»<sup>1</sup> bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan keng foydalanish va ularning samarali faoliyat yuritish mexanizmlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu masalaning prinsipial asoslarini ishlab chiqishda yaxlitlik mavjud emasligi korxonada boshqaruvida axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha samarali mexanizmni shakllantirish imkonini bermaydi. Shuning uchun ham axborot tizimlaridan keng foydalanish bo'yicha kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish, turli mulk shaklidagi korxonalarining boshqaruv tizimida ulardan samarali foydalanish zaruratini anglatadi, bu esa ushbu dissertatsiya ishida hal etiluvchi vazifalar maqsadini belgilash imkonini beradi. Zamonaviy sanoat korxonalarining ko'pchiligida bitta korxonada doirasida amalga oshadigan texnologik yechimlarning turlicligi va yo'lga qo'yilgan o'zaro aloqalar hamda yangi texnologiyalarni joriy qilish kabi ijobiy tomonlari bilan ajralib turuvchi korxonalarining vorislari hisoblanadi. Biroq ular korxonaning ishlash samaradorligiga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi bir qator ijobiy va salbiy omillarga ham ega bo'ladilar<sup>2</sup>. Texnologiyalar modernizatsiyasi, innovatsion texnologik yechimlarning tatbiq etilishi korxonaning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Amaldagi maqsadli dasturlar aynan modernizatsiyalash bo'yicha raqobatbardosh innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan bo'ladi. MES-tizimlari darajasida mahsulot ishlab chiqarishni boshqarish, ishlab chiqarishga texnik xizmat ko'rsatish, zaxiralarni boshqarish, sifatni ta'minlash vazifalari hal etiladi. Buyurtmalarga ishlov berish, mahsulot qiymatini hisoblash, yetkazib berish jarayonini boshqarish, yuklashni tashkil etish kabi vazifalar qo'llab-quvvatlanadi. Korxonada MES-tizimi samarali amal qilishi uchun u korporativ axborot tizimi ERP bilan o'zaro ta'sirda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 sonli Farmoniga 1-ilova. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>2</sup> Bander mann M. Information technology in Europe: The EC Communication's View It European Information Tecnology Observatory 2014. – Mainz.

bo'lishi kerak<sup>3</sup>. Ishlab chiqarishning konstruktorlik tayyorgarligi tuzilmaviy moduli. Unigraphics NX4 CAD/CAE dasturiy mahsulotlariga va TeamCenter Engineering muhandislik ma'lumotlarini boshqarish tizimiga asoslanadi va korxonada ishlab chiqarishning konstruktorlik tayyorgarligining axborot qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi<sup>4</sup>. Ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligi tuzilmaviy moduli. Ushbu modul Unigraphics NX4 CAD/CAM dasturiy mahsulotlariga, ADEM CAPP texnologik jarayonlarni loyihalashtirish tizimiga va TeamCenter Engineering muhandislik ma'lumotlarini boshqarish tizimiga asoslanadi. Bu esa mahsulotlar, detallar, kerakli asbob-uskunalar va maxsus instrumentlarni ishlab chiqarishni konstruktorlik va texnologik tayyorgarligining axborotli qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Ushbu modullar korxonada bosh texnolog bo'limi, ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bo'limi va bosh metallurg bo'limi tomonidan bajariladi<sup>5</sup>.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda axborotlashtirishga kompleksli yondashuvning mohiyati shundaki, unda oshkor bo'lmagan holda, fon rejimida o'tadigan barcha jarayonlar, ularni qo'llab-quvvatlashga, qotib qolgan operatsiyalar hisobga olinadi, ularni avtomatlashtirish, axborotli platformaga o'tkazish imkoniyati baholanadi va ko'rib chiqiladi. Bu jiddiy va sinchkov ish natijasida biznesda axborot texnologiyalarni qo'llashdan hosil bo'ladigan bevosita foydani solishtirishga, baholashga va o'lchashga imkon beradigan real raqamlar olinadi. Kompleksli axborotlashtirishning konseptual yondashuvi faqatgina korxonaning ishlab chiqarish faoliyati va uning ma'muriy-boshqaruv ta'minoti tizim ostilari doirasida qolib ketmaydi – javobgarlik zonasi mahsulotlarning butun hayotiy siklini va mahsulotni sotish sektorini, uni kafolatli va kafolatdan keyingi qo'llab-quvvatlanishini, marketing tadqiqotlari sektorini va

---

<sup>3</sup> Rasulev D.M. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida investitsiyani moliyalashtirishni ekonometrik modellashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – T.: 2021. 243 b.

<sup>4</sup> Романов А.Н., Одинцов Б.Е. Информационные системы в экономике (лекции, упражнения задачи): Учебное пособие. - М: Вузовский учебник, 2016. – 300 с.

<sup>5</sup> G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – Darslik/ – T.: Fan, 2020 y. – 685 b.

iqtisodiyotni rejali tartibga solishning yoʻqligi natijasida yuzaga keladigan boshqa faoliyat yoʻnalishlarini qamrab oladi<sup>6</sup>.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-4947 sonli Farmoniga 1-ilova. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Bander mann M. Information technology in Europe: The EC Communication's View It European Information Tecnology Observatory 2014. – Mainz.

3. Rasulev D.M. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida investitsiyani moliyalashtirishni ekonometrik modellashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. – T.: 2021. 243 b.

4. Романов А.Н., Одинцов Б.Е. Информационные системы в экономике (лекции, упражнения задачи): Учебное пособие. - М: Вузовский учебник, 2016. – 300 с.

5. Gʻulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – Darslik/ – T.: Fan, 2020 y. – 685 b.

6. Косарев В.П., Левит Б.Ю., Шуремов Е.Л., Анненков А.П., Лёвочкина Г.А., Мамонтова Е.А. и др. Информационные системы в экономике. – М.: Финансы и статистика, Перспектива, 2019. – 160с.

---

<sup>6</sup> Косарев В.П., Левит Б.Ю., Шуремов Е.Л., Анненков А.П., Лёвочкина Г.А., Мамонтова Е.А. и др. Информационные системы в экономике. – М.: Финансы и статистика, Перспектива, 2019. – 160с.